



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025-yil 2-iyul, № 134 (9029)

Juma

Saytimga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR SOHASINI YANADA RIVOJLANTIRISH BORASIDA MUHIM VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 1-iyul kuni raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va telekommunikatsiya sohaslaridagi rejalar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda raqamli texnologiyalar rivoji uchun yaratilgan keng imkoniyatlar katta natijalar olib keldi. IT-park rezidentlari 2 ming 800 dan oshdi, xorijiy kompaniyalar 752 taga yetdi. Bu sohada 40 ming nafar yosh yuqori daromad topyapti.

Oxirgi 5 yilda soha eksporti 170 million dollardan 1 milliard dollarga yaqinlashdi. Internet tezligi 7 barobar, mobil internet esa 4,5 barobar oshdi. O'tgan yili sohadagi startaplarga 70 million dollar venchur investitsiya kiritildi.

Bularning natijasida "Global startaplari indeksi" reytingida O'zbekiston 12 pog'ona yuqorilab, "TOP-100"likka kirdi. O'tgan yili "Sun'iy intellektga tayyorlik" xalqaro

indeksida yurtimiz 17 pog'ona ko'tarilib, Markaziy Osiyoda 1-o'rinni egalladi. O'zbekiston telekommunikatsiya sohasining o'sish sur'atlari bo'yicha MDH mamlakatlari reytingida birinchi o'rinni egalladi.

Bunday ishlar izchil davom ettirilmoqda. Xususan, kelgusi yilda davlat xizmatlarini raqamlashtirishni 70 foizga, IT xizmatlari miqdorini 100 trillion so'mga yetkazish rejalashtirilgan. "Elektron hukumat rivojlanish indeksi"da kamida 55-o'ringa ko'tarilish maqsad qilingan. Bu ko'rsatkichlarga erishish uchun qator hujjat loyihalari ishlab chiqilgan.

Taqdimotda ushbu loyihalar va takliflar muhokama qilindi.

Bugungi kunda 760 ta davlat xizmati raqamlashtirilgan. O'tgan yili 10 million fuqaro raqamli xizmatlardan foydalangan.

Davlatimiz rahbari endi keyingi "Raqamli hukumat" bosqichiga o'tish vaqti kelganini ta'kidledi. Buni, eng avvalo, aholi eng ko'p murojaat qiladigan ta'lim, tibbiyot, qurilish va kommunal sohalardan boshlash kerakligi aytiladi.

O'zbekiston Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi qaroriga muvofiq Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi qabul qilingan edi. Bu sohada infratuzilmani yaxshilashga 50 million dollar ajratildi. Sun'iy intellekt milliy modelini yaratib,

1 million nafar mutaxassis tayyorlash vazifasi belgilangan.

Raqamli texnologiyalar vaziri buni amalga oshirish bosqichlari, infratuzilmani yaxshilash tadbirlari haqida axborot berdi.

Sohada xizmatlar hajmi va eksportini oshirish ham muhim vazifalardan. Hozirda bu boradagi ko'rsatkichlarning asosiy qismi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelyapti. O'zbekistondagi sharoit va imtiyozlar natijasida boshqa relokantlar ham yurtimizga kelishdan manfaat ko'ryapti. Shu bois har bir hududda jozibador muhit yaratib, chet el kompaniyalarini jalb etish muhimligi ta'kidlandi.

## O'ZBEKISTON PREZIDENTI DAVLAT TASHRIFI BILAN OZARBAYJONDA BO'LADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti

Ilhom Aliyevning taklifiga binoan 2 – 4-iyul kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ladi.

Tashrif dasturiga muvofiq 2-3-iyul kunlari Boku shahrida Oliy davlatlararo kengashning ikkinchi yig'ilishi va boshqa oliy darajadagi tadbirlar bo'lib o'tadi.

O'zbekiston bilan Ozarbayjon o'rtasidagi do'stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash, hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarida kooperatsiya va almashinuvlarni kengaytirish masalalari ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Prezidenti 4-iyul kuni Xonkendi shahrida Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 17-sammitida ishtirok etadi va qator ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazadi.

O'ZA.

## OLIMPIYA VA PARALIMPIYA O'YINLARIGA TAYYORGARLIK BO'YICHA TAKLIFLAR TAQDIMOTI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Ma'lumki, 2024-yilda Parijda o'tgan Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida yurtimiz sportchilari muvaffaqiyatli ishtirok etib, umumjamo'a hisobida har ikki yo'nalishda 13-o'rinni egallagan edi. Joriy yil 13-fevralda bo'lgan videoselektor yig'ilishida yurtimizda olimpiya harakatini yanada rivojlantirish, kelgusidagi musobaqalarga puxta hozirlik ko'rish vazifasi qo'yilgandi. Shunga muvofiq 2028-yilda AQSHning Los-Anjeles shahrida bo'ladigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik bo'yicha qaror loyihasi ishlab chiqildi.

Qaror bilan 10 ta ustuvor vazifa belgilanmoqda. Bular – sport turlarini ustuvor, istiqbolli va rivojlanayotgan toifalarga ajratgan holda kuchaytirish, natijador sport turlari geografiasini kengaytirish, iqtidorli yoshlarni quyi bo'g'indan boshlab shaffof usulda saralab olish, xorijiy mamlakatlarda tajribasiga asoslangan milliy metodika yaratish, terma jamoalar uchun aniq maqsad va natijadorlikka yo'naltirilgan o'quv-mashg'ulot yig'inlarini tashkil etish, ularning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, xalqaro sport tashkilotlari bilan hamkorlikni mustahkamlash kabildir.

Shuningdek, O'zbekiston sportchilarini 2028-yilgi Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga tayyorlash dasturi va maqsadli ko'rsatkichlar belgilanmoqda.

Bu sohada ishlarini tizimli tashkil etish maqsadida Milliy olimpiya qo'mitasining 14 ta hududiy bo'limi tashkil etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari Olimpiya harakatini rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus vakili bo'ladi. Har bir hududga Sport vazirligi va Olimpiya qo'mitasidan mas'ullar birlashtirildi.

Asosiy maqsad faqat bitta Olimpiada emas, doimiy

va mustahkam zamin yaratishdir. Iqtidorli sportchilarni eng quyi bo'g'indan boshlab saralash va professional etib tayyorlash uchun uch bosqichli "Yangi O'zbekiston Olimpiya cho'qqilari" musobaqasi yo'lga qo'yiladi. Uning final bosqichi har yili Olimpiya shaharchasida "Prezident Olimpiadasi" sifatida o'tkaziladi. G'olib va sovrindor sportchilar Olimpiya markazlariga jalb etilib, professional tayyorlanadi.

Respublika olimpiya va paralimpiya markazining faoliyati milliy terma jamoalar zaxirasini yaratishga qaratiladi. Uning ta'minoti 2026-yildan boshlab respublika byudjetiga o'tkaziladi. Markaz 8 – 11-sinflar uchun maktab, 1 – 2-kurslar uchun kollej sifatida faoliyat ko'rsatadi hamda qabul kvotasi oshiriladi. 1 – 2-kurs o'quvchilariga Sport vazirligi stipendiyasi beriladi. O'quv-mashg'ulotlar o'tkazib borish uchun Olimpiya shaharchasi inshootlari markazga beg'araz asosda birlashtiriladi.

Shuningdek, atletlar zaxirasini kengaytirish maqsadida xususiy sport klublari faoliyati takomillashtirilib, rasmiy musobaqalardagi ishtiroki ta'minlanadi. Yuqori natija ko'rsatgan sportchilar milliy terma jamoalarga qabul qilinishi mumkin bo'ladi.

Sportchi va murabbiylar uchun ko'plab rag'batlar ham nazarda tutilmoqda. Jumladan, nufuzli musobaqalar g'olib va sovrindorlari oliy harbiy ta'lim muassasalariga to'g'ridan-to'g'ri qabul qilinadi. Mahoratli sportchilarni boshlang'ich bo'g'inda yetishtirgan murabbiylar uchun ham ustamaning muayyan qismi to'lab boriladi.

Davlatimiz rahbari sport federatsiyalari faoliyatini samarali tashkil etish, hududlarda soha infratuzilmasini yaxshilash, sportchi va murabbiylarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

## TASVIRIY VA AMALIY SAN'AT YANADA YUKSALTIRILADI

Davlatimiz rahbariga tasviriy va amaliy san'at sohasini yanada rivojlantirishga oid qaror loyihasi haqida axborot berildi.

Bu sohalar xalqimiz madaniyatining, yoshlar tarbiyasining ajralmas qismi. Lekin ilgari, o'nlab yillar davomida rassomlar e'tibordan chetda qolgandi. Shu bois Prezidentimiz Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida bu masalaga to'xtalib, mutasaddilarga ko'rsatma bergan edi.

Loyihaga ko'ra 2026-2027-yillarda investitsiya dasturi doirasida Badiiy akademiyani Markaziy ko'rgazmalar zali va fondi binosini rekonstruksiya qilish, Toshkent Fotosturatlari uydida Multimedia markazi tashkil etish rejalashtirilgan.

Eng muhimi, san'atsevar yoshlar uchun imkoniyatlar kengaytiriladi. Jumladan, Badiiy fond hududida zamonaviy galereya hamda 40 ta ijodiy ustaxonadan iborat Yosh rassomlar markazi barpo etiladi, Sharq miniatyura san'ati muzeyida o'quv-ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil qilinadi. Benkov nomidagi rassomlik maktabi ta'mirlanib, 400 o'rinni qo'shimcha o'quv binosi, 200 o'rinni yotoqxona quriladi.

O'ZA.

"Ustoz – shogird" tamoyili asosida yosh qalamkashlarni tarbiyalab kelayotgan tajribali rassomlar qo'shimcha rag'batlantirib boriladi. Har yili tanlov asosida eng iste'dodli ijodkorlar xorijiy mamlakatlarga tajriba almashishga yuboriladi.

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida ta'lim sifatini oshirish choralari ko'riladi. Bu yerda ilg'or xorijiy o'quv reja va dasturlar bosqichma-bosqich joriy etiladi. Professor-o'qituvchilarning munosib badiiy asarlari ilmiy monografiyaga tenglashtiriladi. Shuningdek, bu institutni bitirgan mutaxassislariga maktablarda tasviriy san'at fanidan dars o'tishiga ruxsat beriladi.

"Yangi O'zbekiston manzaralari", "Tarixiy allomalar" va "Zamon qahramonlari" turkumidan ijodiy asarlarni davlat buyurtmasi asosida yaratish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Prezidentimiz hududlarda ham rassomlar uchun sharoitlarni yaxshilash, yoshlarni tasviriy rassomlik maktabi ta'mirlanib, 400 o'rinni qo'shimcha o'quv binosi, 200 o'rinni yotoqxona quriladi.

O'ZA.

## O'zbekiston – Ozarbayjon: KELAJAKKA YO'NALTIRILGAN STRATEGIK SHERIKLIK VA ITTIFOQCHILIK

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2 – 4-iyul kunlari davlat tashrifi bilan Ozarbayjonda bo'ladi va Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammitida ishtirok etadi.

Ozarbayjon O'zbekistonning yaqin do'sti va vaqt sinovidan o'tgan ishonchli strategik hamkoridir. Ikki davlat o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1995-yil 2-oktyabrda o'rnatilgan. O'shandan buyon o'zaro hurmat va ishonch ruhida izchil rivojlanib borayotgan ikki tomonlama muloqot strategik sheriklik va ittifoqchilikning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Ikki davlat rahbarlarining do'stona va o'zaro mustahkam ishonchga asoslangan munosabatlari mamlakatlarimiz o'rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2022-yilda Strategik sheriklikni chuqurlashtirish va keng qamrovli hamkorlikni rivojlantirish deklaratsiyasi va 2024-yilda Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shart-noma kabi hujjatlar imzolandi. Davlatimiz rahbari Ozarbayjonda bo'lib o'tgan turli ko'p tomonlama forumlarda, jumladan, Qo'shimchilik harakati Muloqot guruhi va 2023-yilda BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari bo'yicha maxsus dasturi (SPEKA) sammitlarida, Turkiy davlatlar tashkiloti va BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasida (COR29) qatnashdi.

O'z navbatida, Ozarbayjon yetakchisi 2022-yilda O'zbekistonda tashkil etilgan Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti va 2023-yilda Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammitlarida ishtirok etdi.

Ushbu tashriflar davomida siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport, energetika va madaniy-gumanitar sohalarni qamrab olgan o'nlab shart-nomalar imzolandi.

Davlatimiz rahbari Ozarbayjonda bo'lib o'tgan turli ko'p tomonlama forumlarda, jumladan, Qo'shimchilik harakati Muloqot guruhi va 2023-yilda BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari bo'yicha maxsus dasturi (SPEKA) sammitlarida, Turkiy davlatlar tashkiloti va BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasida (COR29) qatnashdi.

O'z navbatida, Ozarbayjon yetakchisi 2022-yilda O'zbekistonda tashkil etilgan Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti va 2023-yilda Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammitlarida ishtirok etdi.

O'ZA.

## O'ZBEKISTON — OZARBAYJON BIRINCHI PARLAMENTLARARO FORUMI

hamkorlikni yanada rivojlantirish va qadriyatlarga sadoqatning yorqin dalili

1-iyul kuni qadimiy va go'zal Xiva shahrida O'zbekiston – Ozarbayjon birinchi parlamentlararo forumi bo'lib o'tdi. "Yangi imkoniyatlar sari: muloqotdan hamkorlikdagi harakatlarga" mavzuni o'zida mujassam etgan ushbu nufuzli anjuman ikki mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish, parlamentlararo muloqotni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida tashkil etildi. Forum ikki mamlakat o'rtasidagi diplomatik munosabatlarni rnatilganining 30 yilligi arafasida o'tkazilgani uning ahamiyatini yanada oshirgani shubhasiz.



Akmal MUHAMMADOV olgan surati.

Anjumani Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva ochib berdi. Senat Raisi o'z nutqida ta'kidlaganidek, "O'zbekiston – Ozarbayjon birinchi parlamentlararo forumi – bu nafaqat tarixiy voqealik, balki ikki

davlat parlamentlararo hamkorligini yangi bosqichga olib chiquvchi muhim platforma hisoblanadi. Biz mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish va Parlamentlararo komissiya tashkil etish orqali ikki tomonlama

aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishimiz zarur. Ushbu forum O'zbekiston tashqi siyosatining ochiqlik, do'stlik va barqaror taraqqiyotga yo'naltirilganining yana bir yorqin dalilidir."

O'ZA.

## Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

## HUQUQIY NORMALAR SAMARADORLIGI — ASOSIY MAQSAD

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilov yurtimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim voqe'larga atroflicha to'xtaldi.

Jumladan, 23-iyun kuni Prezidentimiz tomonidan imzolangan "O'zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmon vakillik organlarining davlat va jamiyat hayotidagi o'zni hamda rolini yanada oshirish borasida muhim qadam bo'lgani ta'kidlandi. Aholini tashvishga solib kelayotgan dolzarb masalalarni hal qilish va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini ustidan ta'sirchan nazorat o'rnatish bo'yicha mahalliy Kengashlarga qator qo'shimcha vakolatlarni berilganini urgulandi. Ushbu Farmon ijrosini o'z vaqtida va samarali amalga oshirishda deputatlar faol ishtirok etishi lozimligi,



siyosiy partiyalar fraksiyalari va qo'mitalar mahalliy Kengashlarga har tomonlama amaliy yordam ko'rsatishi, ularning yangi vakolatlardan samarali foydalanishlariga ko'maklashishi zarurligi aytiladi.

Davlatimiz rahbari 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan bir guruh yoshlar bilan uchrashgani va navqiron avlod vakillarining imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan muhim tashabbuslarni ilgari surgani alohida e'tirof etildi. Ushbu tashabbuslar yigit-qizlarning iqtidori, salohiyati va iste'dodini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qilishi ta'kidlandi. Prezidentimizning yoshlar bilan bo'lib o'tgan bu galgi muloqotining ruhi bugungi davrning juda dolzarb va o'tkir talablari hamda vazifalarini ifoda etgani, murakkab va ziddiyatli zamonda millatlar va xalqlarning kelajagini, yashovchanligini kafolatlaydigan yoshlar qatlamini har tomonlama qo'llab-quvvatlash global masala ekani qayd etildi.

O'ZA.

O'zbekiston – Ozarbayjon:

KELAJAKKA YO'NALTIRILGAN STRATEGIK SHERIKLIK VA ITTIFOQCHILIK

Ikki davlat o'rtasidagi siyosiy hamkorlik ochiq va konstruktiv muloqot tamoyillariga asoslanadi. Mamlakatlarning tashqi siyosat idoralari o'rtasidagi muntazam maslahatlashuvlar, BMT, Qo'shimlasiz harakati, TDT, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa mintaqaviy hamda xalqaro tuzilmalar doirasidagi yaqin sheriklik mintaqaviy va global rivojlanishning ko'plab dolzarb masalalari bo'yicha O'zbekiston va Ozarbayjon pozitsiyalarining o'xshashligini tasdiqlaydi.

Kun tartibida Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) doirasidagi hamkorlik alohida o'rin tutadi. O'zbekiston 1992-yil 28-noyabrda Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'ldi va mazkur tuzilma doirasida boshqa davlatlar bilan samarali hamkorlik qilmoqda. Savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy aloqalarni kengaytirish, jahon bozorida raqobatbardoshlikni oshirish, xorijiy sheriklar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasini chuqurlashtirish, mintaqada yangi transport yo'laklarini yaratish, rivojlantirish va ulardan samarali foydalanish xalqaro hamkorlikning eng muhim yo'nalishlaridandir.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston IHTning faol ishtirokchisi sifatida logistika yo'laklarini, savdo-investitsiya platformalarini rivojlantirish va mintaqada barqaror taraqqiyotga qaratilgan muhim tashabbuslarni ilgari surayotgani, ular faol qo'llab-quvvatlanayotgani va muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini alohida ta'kidlash lozim.

IHT doirasida O'zbekiston va Ozarbayjon samarali hamkorlikni namoyish etib, bir-birining tashabbuslarini izchil qo'llab-quvvatlab, qo'shma loyihalarni amalga oshirishga hissa qo'shmoqda, bu esa ikki tomonlama kun tartibini mazmunan boyitmoqda. 2017-yildan buyon oliy darajadagi O'zbekiston – Ozarbayjon muloqoti faollashgani delegatsiyalar almashinuvining faollashuviga xizmat qildi. O'tgan sakkiz yil davomida eng oliy va yuqori darajadagi 150 dan ortiq tashriflar amalga oshirildi.

O'zbekiston va Ozarbayjon parlament delegatsiyalarining xalqaro tadbirlardagi o'zaro tashriflari va ikki tomonlama uchrashuvlari dinamikasi tomonlarning o'zaro muloqotini, shuningdek, mintaqaviy va global parlamentlararo tuzilmalar doirasidagi hamkorlikni mustahkamlashdan manfaatdorligini ko'rsatadi.

Iddoralari darajadagi hamkorlik ham faol rivojlanmoqda. Ikki mamlakat Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida muntazam ravishda siyosiy maslahatlashuvlar o'tkazilib, transport ma'muriyatlari darajasida yaqin muloqotlar olib borilmoqda, savdo-iqtisodiy aloqalar, sanoat kooperatsiyasi mustahkamlanmoqda.

O'zbekiston va Ozarbayjon mos ravishda Markaziy Osiyo hamda Janubiy Kavkazda yirik iqtisodiy salohiyatga ega davlatlar sanaladi.

Bu ularni iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni chuqurlashtirishga intilayotgan iqtisodiy jihatdan istiqbolli hamkorlarga aylantiradi. 2020-yilda O'zbekiston – Ozarbayjon ishbiarmonlar kengashining tashkil etilishi bu yo'nalishdagi muhim qadam bo'ldi. Mazkur platforma o'zaro manfaatlar kesishgan yangi nuqtalarni aniqlash imkonini berdi va foydali sarmoyaviy, savdo-iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga ko'maklashmoqda.

Shuningdek, Ozarbayjon kapitali ishtirokida savdo, mashinasozlik va metallga ishlav berish, moliya va sug'urta, ko'chmas mulk oldi-sotdisi, energetika, xizmat ko'rsatish, zarqarlik buyumlari ishlab chiqarish, oziq-ovqat sanoati, yengil sanoat va boshqa yo'nalishlarda faoliyat yuritayotgan 250 dan ortiq korxonalar O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishga muhim hissa qo'shmoqda.

Ozarbayjonda "UzAuto" avtomobil yig'ish zavodining ochilishi sanoat kooperatsiyasining yorqin misollaridan biri bo'ldi. Mazkur loyiha O'zbekistonning eksport imkoniyatlarini kengaytiradi va Ozarbayjonda ish o'rini yaratadi. Shu bilan birga, agrosanoat, to'qimachilik sanoati, logistika sohasidagi kooperatsiya ham muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Har ikki davlat ham Transkaspoy yo'nalishi loyihalarini orqali tranzit salohiyatidan samarali foydalanish, shuningdek, transport strategiyalarining integratsiyalashuvidan manfaatdor.

O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 2024-yil yakuniga ko'ra 250 mln. dollardan oshdi. Shu bilan birga, tomonlar kelgusi yillarda uni bir necha barobar oshirishga intilmoqda. Bunga mamlakatlarning o'rtasida o'rnatilgan erkin savdo rejimi va joriy yilning iyun oyida Bokuda so'nggi yig'ilishi bo'lib o'tgan hamkorlik bo'yicha Hukumatlararo qo'shma komissiya yaqindan ko'maklashmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston va Ozarbayjon hududlararo sheriklikli rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2023-yil fevral oyida Toshkentda O'zbekiston – Ozarbayjon birinchi hududlararo forumi bo'lib o'tdi. Uning yakunlari bo'yicha Samarqand va Ganja, Xiva va Shusha, Buxoro va Lankoran, Qo'qon va Sheki shaharlari o'rtasida hamkorlik memorandumlari imzolandi. 2024-yil may oyida Ozarbayjonning Guba shahrida II Hududlararo forumi bo'lib o'tdi. Mazkur anjuman yakunida Namangan va Mingechevir, Guliston va Fuzuliy, Termiz va Bilyasuv shaharlari o'rtasida hamkorlik aloqalari o'rnatildi. Bundan tashqari, 2024-yil avgust oyida Toshkentda bo'lib o'tgan biznes forumi doirasida Jizzax va Guba, Shahrisabz va Beylagan o'rtasida birodarlashgan shaharlar to'g'risidagi munosabatlarni o'rnatish haqidagi

bayonnomalari imzolandi.

2025-yil iyun oyida Boku shahrida III hududlararo forum bo'lib o'tdi. Shuningdek, ikki davlat hududidagi eng istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish maqsadida 2023-yilda ustav kapitali 500 mln. dollar bo'lgan O'zbekiston – Ozarbayjon qo'shma investitsiya kompaniyasi tashkil etildi.

Mazkur tuzilmalarning tashkil etilishi rasmiy Toshkent va Bokuning iqtisodiy integratsiyalashuv hamda savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikning mavjud salohiyatini to'liq amalga oshirishdan o'zaro manfaatdorligidan dalolat beradi. Buni ko'plab tadbirlar – ko'rgazmalar, biznes forumi va biznes missiyalar ham tasdiqlaydi.

2024-yil 22-avgust kuni Ozarbayjon Prezidentining davlat tashrifi arafasida Toshkent shahrida O'zbekiston – Ozarbayjon biznes forumi bo'lib o'tdi. Natijada shaharlar infratuzilmasini rivojlantirish va qurish, yangi logistika markazlari, ta'lim muassasalari, hamkor mamlakatlarda tarmoq birlashmalarining vakolatxonalarini tashkil etish bo'yicha ikki tomonlama salmoqli hujjatlar to'plami imzolandi.

Ozarbayjon qaradosh davlat bo'lib, O'zbekiston ham qadimiy, ham yangi tarixda ushbu mamlakat bilan hamisha do'stona munosabatlarni saqlab kelgan. Ma'naviy-madaniy yaqinlik madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirish uchun kuchli poydevor bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek va ozarbayjon xalqlarining buyuk ajdodlari – Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Nizomiy Ganjaviy, Nosiriddin Tusiy, Muhammad Fuzuliy merosi nafaqat turkiy tili xalqlar, balki butun insoniyat mulkidir. Ularning mehnati mamlakatlarimiz xalqlari tomonidan yuksak e'zozlanayotgani Bokuda Alisher Navoiy, Toshkentda esa Nizomiy Ganjaviy va Haydar Aliyev haykali o'rnatilgani, Nizomiy Ganjaviy nomidagi O'zbekiston davlat pedagogika universiteti, Ozarbayjondagi qishloqqa Alisher Navoiy nomi berilgani ham shundan dalolat beradi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2023-yilda Fuzuliy shahrida Mirzo Ulug'bek nomidagi 960 o'quvchiga mo'ljallangan zamonaviy maktab barpo etilgani o'zbek va ozarbayjon xalqlari o'rtasidagi mustahkam do'stlikning yana bir belgisi bo'ldi. Ikki davlat rahbarlari Shavkat Mirziyoyev va Ilhom Aliyevning ta'lim sohasidagi tashabbuslari gumanitar hamkorlikni chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda. Mamlakatlarimiz o'rtasida tobora ko'proq yangi qo'shma loyihalar amalga oshirilyapti, delegatsiyalar muntazam ravishda almashilmoqda.

Ikki mamlakat ijodiy guruhlari muntazam o'tkazib kelinayotgan madaniy va adabiyot kunlari, kino va ijodiy haftaliklari, gastrol va badiiy ko'rgazmalarining doimiy ishtirokchisi hisoblanadi.

**Bugungi kunda O'zbekistonda 40 mingga yaqin ozar diasporasi istiqomat qiladi va ularning barchasi xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashga munosib hissa qo'shmoqda. Bu hissa ikki davlat rahbariyati tomonidan yuqori baholanayotir. Shu tariqa ozarbayjonlik san'at ustalarining madaniyatlararo muloqotni mustahkamlashdagi xizmatlari e'tirof etilgan holda O'zbekistonning yuksak davlat mukofotlariga sazovor bo'ldi. Jumladan, O'zbekiston Prezidentining Farmoni bilan Rashid Behbudov nomidagi Ozarbayjon davlat musiqali teatri vokalisti Gulyanak Mamedova 2022-yilda "O'zbekiston Respublikasi xalq artisti", 2024-yilda Ozarbayjonning taniqli madaniyat arbobi Polad Bulbulog'li "O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi" faxriy unvoni bilan taqdirlandi. Shuningdek, bir qator ozarbayjonlik jamoat va davlat arboblari "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlangan.**

O'z navbatida, Ozarbayjon Prezidentining farmoni bilan "O'zbekkonsert" davlat muassasasi solisti Nasiba Abdullayeva "Ozarbayjon Respublikasi xalq artisti", Yu. Rajabiy nomidagi "Maqom" ansambli badiiy rahbari Abduhoshim Ismoilov, O'zbekiston Davlat konservatoriyasi rektori Kamoliddin O'rinboyev va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Ali Nosiriy "Dostluk" ordeni bilan taqdirlangan.

Ozarbayjonning "Shirvon" folklor guruhi joriy yilning aprel oyida Xiva shahrida o'tkazilgan IV xalqaro baxshchilik san'ati festivalida Gran-prini qo'lga kiritdi.

Ta'lim, fan, sog'liqni saqlash sohaslarida ham hamkorlik izchil rivojlanmoqda. Ikki mamlakat oliy o'quv yurtlari o'rtasida talabalar va ilmiy xodimlar almashinuvi yo'lga qo'yilgan, qo'shma ilmiy loyihalar amalga oshirilmoqda.

Joriy yilning 27-28-may kunlari Andijon shahrida O'zbekiston va Ozarbayjon oliy o'quv yurtlari rektorlarining birinchi forumi bo'lib o'tdi, unda ikki davlatning 50 ta oliy o'quv yurti rektorlari boshchiligidagi 130 dan ortiq delegatsiyalar qatnashdi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bugungi kunda O'zbekiston va Ozarbayjon o'zaro hamkorlikni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarib, ittifoqchilik munosabatlarni kengaytirish uchun mustahkam zamin hozirlashda davom etmoqda.

O'zbekiston Prezidentining Ozarbayjonga davlat tashrifi, shuningdek, IHT sammitidagi ishtiroki har ikki davlatning o'z mintaqalarida nufuzli ishtirokchi sifatidagi mavqeiini mustahkamlash uchun muhim voqea bo'lishi shubhasiz. Mazkur tadbirlar O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi mustahkam qarodoshlik nishtalari, nafaqat ikki tomonlama darajada, balki xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida ham izchil rivojlanib borayotganining yaqqol tasdiqi'dir.

"Dunyo" AA.

**Bizning bebaho boyligimiz ham, kelajak uchun eng katta dividendimiz ham, yoshlar, desak, to'g'ri bo'ladi. Bilagida kuch-g'ayrat, har bir harakatida azmu shijoat jo'sh urgan yigitlarimizni, bilim va odobda, aql-zakovatda tengsiz qizlarimizni ko'rib, har qanday xalq, har qanday davlat bizga havas qilsa arziydi.**

**Shavkat MIRZIYOYEV, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

YANGI O'ZBEKISTONNING BEBAHO BOYLIGI

**Mamlakatimizda 30-iyun – Yoshlar kuni keng nishonlandi. Aslida, iyun – Yoshlar oyligi deb e'lon qilinib, bir-biridan qiziqarli, shukuhli, yangi-shavqqa to'la tadbirlarga o'yneng boshidanoq tadbirlandi. Yoshlar ishlari agentligi ma'lumotiga ko'ra, oy davomida yurtimiz bo'yab "Besh tashabbus olimpiadasi", rassomlar ko'rgazmalari, musahoira kechalari, vazirlik va idoralar rahbarlari, hokimlar, oliy ta'lim muassasalari rektorlarining yoshlar bilan ochiq muloqotlari tashkil etilib, ularga 10 milliondan ortiq yigit-qizlar qamrab olindi.**

**Munosabat**  
Shubhasiz, eng asosiy voqe'lik – poytaxtimizda g'oyat ko'tarinki ruhda o'tkazilgan tadbir, unda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ishtirok etishi va nutq so'zlashi bo'ldi. Davlatimiz rahbari turli sohalarda ilg'or, tashabbuskor va faol bir guruh yigit-qizlarga "Kelajak bunyodkori" medali hamda "Mard o'g'lon" davlat mukofotini topshirdi.

Navqiron avlod vakillari bilan ochiq muloqotga aylangan uchrashuvda Prezidentimiz yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning bilim olishi, iqtidorini namoyon etishi uchun shart-sharoitlarni yanada kengaytirishga qaratilgan ko'plab taklif va tashabbuslarni ilgari surdi. O'z navbatida, yoshlar ham o'z masalalarini, fikr va g'oyalarini davlatimiz rahbariga bildirish imkoniga ega bo'ldi.

Yurtboshimizning mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga ko'tarishda dasturlamal bo'ladigan nutqini butun xalqimiz, ayniqsa, navqiron avlod vakillari katta qiziqish bilan hamda baland ruhda kutib oldi.

Quyida turli sohalarda faol va iste'dodli yigit-qizlardan Yoshlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan tadbirlardan olgan taassurotlarini, Prezidentimiz nutqini tinglab, qalbidagi kechgan tuyg'ularini, fikr-mulohazalarini yozib oldik.

Natijalarimizga dunyo havas qilmoqda

**Asila MIRZAYOROVA, Para atletika bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zosi, Paralimpiya o'yinlari chempioni:**



– Prezidentimiz nutqini tinglab, juda mamnun bo'ldim. Davlatimiz rahbari bilagida kuch-g'ayrat, har bir harakatida azmu shijoat jo'sh urgan yigitlarimizni, bilim va odobda, aql-zakovatda tengsiz qizlarimizni ko'rib, har qanday xalq, har qanday davlat bizga havas qilsa arzishini alohida urg'uladi.

Albatta, yoshlarimiz qo'lga kiritayotgan bugungi yutuqlar o'z-o'zidan kelayotgani yo'q. Ular ortida Prezidentimizning otalarcha g'amxo'rligi, yuksak ishonchi, xalqimizning mehr-muhabbati, yaratilgan qulay sharoitlar turibdi.

Nufuzli tadbirda imkoniyati cheklangan yoshlar ham taqdirlanganidan quvonдим. Bu – yangi O'zbekistonda inson qadriga berilayotgan e'tibor ifodasi. Bunday yuksak e'tibor hali bundan-da katta yutuqlarga, baland marralarga poydevor bo'ladi.

O'zimd an qiyos. Mamlakatimizda biz, paraliimpiyachilarga yaratilgan ulkan imkoniyatlardan unumli foydalanib, O'zbekiston sharafini nufuzli musobaqalarda munosib himoya qilishdek baxtga muyassar bo'ldim.

...O'n besh yoshimda ko'rish qobiliyatimni yo'qotgach, ota-onam meni tushkunlikdan

chiqarish maqsadida sportga jalb etdi. 2015-yildan shahrimizdagi sport to'garaklaridan birida para atletika bilan shug'ullana boshladim. Xuddi shu yili Toshkent shahrida o'tgan musobaqada yugurish sport turi bo'yicha o'z imkoniyatlarimni sinab ko'rdim. Bu hayotimdagi birinchi yirik turnir ekaniga qaramay g'oliblikni qo'lga kiritdim. Shu musobaqa menga kurashish, g'oliblik nashidasini his etishimga imkon berdi. Qalbidagi katta musobaqalar, jahon arenalariga chiqish orzusi, kurashish, oldinga harakat qilish maqsadi paydo bo'ldi.

Otam bilan maslahatlashib, para yengil atletika bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi bosh murabbiyi Sardor Abduholiqovning yoniga bordik. Maqsadim qat'iy ekanini ko'rgan murabbiy meni Toshkentda olib qoldi. U kishining tavsiyasi asosida para atletikaning uzoqlikka sakrash turi bilan shug'ullana boshladim. Tinimsiz mashg'ulotlar, katta musobaqalarga tayyorgarlik boshlanib ketdi.

O'tgan yil hayotimda butunlay yangi sahifa ochdi. Parij shahrida bo'lib o'tgan XVII yozgi Paralimpiya o'yinlarida oltin medalni qo'lga kiritdim. O'z natijam bilan 28 yil davomida o'z g'azmag' kelgan Paralimpiya rekordini yangilashga muvaffaq bo'ldim. Prezidentimiz telefon qilib, shaxsan tabriklaganida qanchalik xursand bo'lganimni ta'riflashga tilim o'z.

Davlatimiz rahbariga 2028-yilda AQSHning Los-Anjeles shahrida bo'lib o'tadigan yozgi Paralimpiya o'yinlarida ham Vatanimiz bayrog'ini eng balandga ko'tarishga va'da berganman. Hozir buning uchun qattiq tayyorgarlik ko'ryapman.

Baxtimiz binosining poydevori

**Eldorbek OLAMNAZAROV, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Farg'ona filiali shifokori:**

– Davlatimiz rahbari o'z nutqida yoshlarga qarata "Sizlar – Yangi O'zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz", deganida quvonchdan to'qinlanib ketdim. Bunday yuksak ishonch va e'tibor har qanday yoshning ruhini ko'taradi, orzulari ro'yobi sari intilishiga qanot bo'ladi. Qiyinchiliklarni yengib o'tishiga kuch beradi.

2023-yildan buyon Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Farg'ona filialida anesteziolog-reanimator sifatida ishlab kelmoqdaman. Filialda mamlakatimiz miqyosida o'tkazilayotgan barcha turdagi eng murakkab va yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari muvaffaqiyatli bajarilmoqda. Xususan, kuniga 5-6 ta yurak-qon tomir kasalliklari, buyrak ko'chirish singari jarrohlik amaliyotlarini o'tkazamiz. Buning uchun tezkor xizmat ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan bo'limlarda jahon andozalari darajasidagi eng ilg'or sharoitlar yaratilgan. Yaqin-yaqingacha bunday dard bilan



og'rig'an bemorlar shifo ilinjida poytaxtga yoki xorijga borishga majbur edi. Bugungi kunda Toshkent, Hindiston, Janubiy Koreya, Germaniya, Turkiya, AQSH va Rossiyadagi tibbiy-ilmiy markazlar bilan faol hamkorligimiz bor. Doimiy ravishda o'zaro tajriba almashish, onlayn muloqotlar o'tkazish, hatto murakkab jarrohlik amaliyotlarini bevosita kuzatib borish imkoniga egamiz.

Hozirda ustozlarim – Husanboy Mahmudov, Ilhomjon Zokirov ko'magida bosh miya kasalliklariga tez va aniq tashxis qo'yish hamda samarali davolash usullari mavzuida ilmiy ish boshlaganman. O'zim

faoliyat olib borayotgan nevroxirurgik reanimatsiya bo'limida nazariy va amaliy tajribalarimni o'zaro uyg'unlashtirib, ushbu yo'nalishda zamonaviy yondashuvlarni yo'lga qo'yish harakatidaman. Buning uchun sharoitlar muhayyo.

Ayni paytda mazkur bo'limda 47 nafar malakali shifokor faoliyat olib bormoqda. Ularning aksariyati yangi avlod vakillari. Bugun Farg'ona tibbiyotida yosh va malakali shifokorlar avlodi shakllandi. Tengdoshlarim bilan birga tez-tez xorijiy davlatlarga borib, eng ilg'or usullarni o'rganib kelamiz. Bizga bir nechta tillarda bemalol muloqot qilish aslo muammo emas.

Bugun yoshlarga katta imkoniyatlar berilmoqda. Biz ularning unumli foydalanishimiz – oldimdagi eng muhim vazifa. Ko'zlangan yuksak natijalarga erishishimiz uchun biz bilim olishni, fidoyilikni faoliyatimizning asosiy mezoniga aylantirishimiz lozim. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, yoshlikda olingan bilim – toshga o'yilgan naqsh, kelajak uchun poydevor degani. Poydevor qancha mustahkam bo'lsa, hayotimiz, baxtimiz binosi shunchalik muhtasham bo'ladi.

Bilim va hunar – mo'jiza

**Bunyod AKBARALIYEV, yosh kuloni (Namangan viloyati, Pop tumani):**

– Prezidentimiz nutqida Alisher Navoiy bobomizning "Bilim xazinasi yoshlikda to'pla", degan so'zlarini eslatib o'tdi. Ilm va ma'rifat bilan qurollangan, vatanparvar xalq har qanday sinovlardan munosib o'talishini, yuksak bilimni, dunyoqarashi keng, zamonaviy fikrlaydigan, texnologik jihatdan savodxon yoshlari ko'p bo'lgan yurtda tinchlik va taraqqiyot, o'zaro jipslik hamisha barqaror bo'lishini ta'kidladi.

Bu fikrlar men kabi har bir yoshni jiddiy mushohada yuritishga, bilim olishda yanada mas'uliyatli bo'lishga undaydi. Chindan ham, bugun kuchli



bilimimiz, yuksak salohiyatimiz b i l i m mamlakatimiz taraqqiyotiga h i s s a q o ' s h i m i z, d u n y o a h l i e'tiborini tortishimiz, ulami qoyil qoldirishimiz mumkin. Bilim va hunar mo'jiza yaratishga qodir. O'tgan yili Qo'qon shahrida o'tkazilgan xalqaro hunarmandchilik festivalida ishtirok etdim. Kechagidek esimda, jittiq qizchasini yetaklab olgan ajnabi sayyoh ayoq bizning ko'rgazmamiz oldida uzoq turib qoldi. So'ngra ixchamgina ko'zachani qo'lga

olib, obdan tomosha qildi-da, o'z tilida nimadir dedi. Chexiyalik ayol loydan bunyod bo'lgan nafis buyumdan ko'z uzolmayotganini ko'rib, "O'zbekistonda tuhfaga" deya ko'zachani qizchasining qo'lga tutqazdim. Ona-bola yuzida mehrlil tabassum balqidi...

Darhaqiqat, hunarmandchilik – qaynar buloq. Avlodlardan-avlodga o'tib kelayotgan bu milliy qadriyatning yurtimizni dunyoga tanitishdagi o'rni beqiyos. Ayniqsa, mohir ustalar qo'lida sayyol topgan bejirim kulolchilik buyumlari hamisha qadrlangan. Biz yashayotgan qishloq ham ayni sohada ming yildan ziyod tarixga ega an'analari bilan butun mamlakatga dovruq taratgan. To'qqiz yoshimda mana shu tajriba

O'qituvchi salohiyatli bo'lsa, ta'limda sifat muqarrar

**Davirbek HASANOV, Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ona tili va adabiyot fanlarini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan ijod maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi:**

– Prezidentimiz o'z nutqida mamlakatimizda islohotlar boshlangan ilk kunlardan o'qituvchi – tarbiya – innovatsiya" zanjirini yaratishga kirishilganini, bu yo'lidagi harakatlarimiz bugun aniq natijalar berayotganini ta'kidladi. Yurtimiz yoshlari dunyoning nufuzli oliygo'hariga o'qishga kirish bo'yicha erishayotgan natijalarga urg'u qaratadi.

Haqiqatan ham, mamlakatimizda ta'lim sohasini isloh qilish, o'qituvchi va pedagoglar mahoratini oshirish hamda shu orqali ta'lim sifatini yuksaltirish borasida misli ko'rilgan ishlar qilinmoqda. Ta'lim sifatini kuchaytirish uchun, avvalo, o'qituvchilar bilim hamda malakasini boyitishga ahamiyat berilyapti. Shu bois bugungi kunda viloyat maktablarida ham milliy va xalqaro sertifikatga ega bo'lgan o'qituvchilar safi yildan-yilga kengaytmoqda. Asosiy, ular zahmatli mehnatiga yarasha moddiy rag'batlantirilib borilmoqda.

Masalan, ijod maktabiga pedagog-xodimlar ikki bosqichli tanlov asosida ishga qabul qilinadi. Rosti, o'zim ana shu sinovlardan o'tayotgan paytda go'yoki yana universitetning kirish imtihonini topshirayotgandek bo'lgandim. Chunki unda ham oliy o'quv yurtida bo'lgani kabi test sinovi bor, so'ngra suhbat shaklidagi og'zaki imtihon. Raqobat ham shunga yarasha: bir ish o'rni uchun 8 kishi kurashgan. Ne baxtki, yakunda kaminaning eng yuqori natija bilan ishga qabul qilinganining ma'lum bo'ldi.

Ochig'i, o'shanda mazkur muvaffaqiyatni juda katta yutuq sifatida qabul qildim. Negaki, birinchidan, ko'pchilik ishlashni orzu qiladigan nufuzli ta'lim maskani o'qituvchisi bo'lish sharafiga yetishdim, ikkinchidan, tinmay o'qib-organing, chuqur bilim olgan kishi hayotda o'zining munosib o'rni topishi aniqilgini amalga ko'rdim. Yana raqobatchi kasbdoshlarim timsolida mamlakatimiz yoshlarining o'z intellektual salohiyatlarini oshirish, yanada chuqur bilim olish, kasbining ustasi bo'lish, zamonaviy talablarga mos sohalarning yetuk mutaxassisiga aylinish uchun astoydil intilayotganining bevosita guvohiga aylandim. Zero, keng bilim, yuqori salohiyatli, raqobatbardosh mutaxassis-kadrlarning ko'p bo'lishi yurtimiz taraqqiyoti yanada jadallashishining muhim omilidir.

Maktabimizdagi o'quvchilarimizning barchasi iqtidorli va intiluvchan. Albatta, bugungi bilim olishga ishtiyoqi baland o'g'il-qizlarga dars berishning o'zgacha zavqi bilan birga katta mas'uliyati ham bor. Ana shu mas'uliyat ijod maktabidagi pedagog xodim borki, barchamizning kasbiy va bilim darajamizni muttasil oshirib borishga, o'qib-organishga undaydi. O'qituvchi o'qib-rganishni kanda qilmasa, uning saboqlari, shubhasiz, o'z samarasini beradi.

maktabida mashhur kulol Vahobjon Buvayevga shogird tushdim. Ayni paytda Guliston davlat universitetining amaliy san'at va badiiy kulolchilik yo'nalishida tahsil olish bilan birga o'nlab ko'rgazmalarda qatnashdim. Joriy yil bahorida Sirdaryo viloyatida tashkil etilgan xalqaro tasviriy va amaliy san'at festivalida namoyish qilingan mahsulotlarim kumush medalga loyiq topildi.

Yurtimizda xalq ijodiyotining turli yo'nalishlarida shug'ullanayotgan yoshlar anchag'ini tashkil etadi. Bu esa tobora rivojlanib borayotgan hunarmandchilikdan endilikda yosh avlod ham tobora ko'proq bahra olib, ajdodlarimizdan qolgan milliy an'analarni munosib davom ettirayotganidan nishona.

"Xalq so'zi".



# O'ZBEKISTON – OZARBAYJON BIRINCHI PARLAMENTLARARO FORUMI

## hamkorlikni yanada rivojlantirish va qadriyatlarga sadoqatning yorqin dalili

O'z navbatida, Ozarbayjon Milliy Mejlisi Raisi Sahiba Gafarova ham "bugun davlatlarimiz rahbarlarining siyosiy irodasiga asoslangan, mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stlik va birodarlikka tayangan parlamentlararo formatda hamkorlikning yangi sahifasi ochilyapti. Ishonamanki, parlamentlarimiz yangi formatda davlatlararo munosabatlarni chuqurlashtirish va har tomonlama rivojlantirishga turtki beradi", deya o'z fikrini bildirdi.

Ta'kidlanganidek, O'zbekiston hamda Ozarbayjon munosabatlari har doim umumiy tarixiy, madaniy va ma'naviy qadriyatlarga asoslangan. Bu rishtalar xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik, o'zaro hurmat va birodarlik tuyg'ulari bilan mustahkamlangan.

Forumda do'stlik guruhlarini faoliyatini kengaytirish, ularni parlamentlararo komissiyalar darajasiga ko'tarish, qo'shma qonunchilik tashabbuslari ishlab chiqish, yoshlar intilishlarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, raqamli transformatsiya va ekologiya kabi ustuvor yo'nalishlarda hamkorlikni

rivojlantirish kabi masalalar muhokama qilinadi. Shuningdek, u hududiy vakillik organlari (O'zbekistonda mahalliy Kengash va Ozarbayjonda munitsipalitet, ozarbayjoncha "belediye") o'rtasida tajriba almashish mexanizmini joriy etish, parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash

va ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishdagi turli yondashuvlarning samaradorligini oshirish uchun muhim qadam hisoblanadi. Bu tashabbus mahalliy darajadagi qonunchilik organlari orasida bilim hamda tajriba almashishga, muammolarni hal qilishda yangicha qarashlar va ishlash usullarini

tatbiq etishga imkon beradi, natijada har bir hududda ijobiy o'zgarishlar qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

Forum doirasida o'tkaziladigan sessiyalarda ham parlamentlararo roli, qonun ijrosini nazorat qilish, biznes va investitsiya muhitini yaxshilash, raqamli islohotlar, madaniyat va turizm sohasidagi aloqalar, atrof-muhitni muhofazalash hamda ayollar va yoshlarning jamiyatdagi o'rni kabi mavzular keng muhokama etildi.

Qisqacha aytganda, mazkur forum nafaqat parlamentlararo muloqot uchun muhim platforma, balki ikki davlat o'rtasidagi umumiy taraqqiyot istiqbollari belgilab beruvchi, yaqin hamkorlikni amaliy mazmun bilan boyituvchi muhim voqe'lik sifatida tarixga kiradi.

Forum yakunlari bo'yicha strategik sheriklikni yanada mustahkamlash, ustuvor sohalarda ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, qo'shma tashabbuslarni samarali amalga oshirish bo'yicha huquqiy asoslarni takomillashtirishga qaratilgan Xiva deklaratsiyasini qabul qilish nazarda tutilgan.

"Xalq so'zi".

## So'nggi 5 yil ichida

O'zbekiston va Ozarbayjon o'zaro savdo hajmi ikki baravar oshib, 2024-yil yakunlari bo'yicha 253 million AQSH dollariga yetdi. Yaqin kelajakda mazkur ko'rsatkichni 1 milliard dollarga yetkazish maqsadi yo'yilgan.

■ Qo'shma korxonalar soni **5 baravar** oshdi. Hozirgi kunda O'zbekistonda Ozarbayjon kapitali ishtirokida **240 dan** ortiq kompaniyalar faoliyat yuritmoqda.

■ Samarqand – Ganja, Xiva – Shusha, Buxoro – Lankaron, Qo'qon – Shaki, Namangan – Mingeqchaur, Guliston – Fuzuliy, Termiz – Bileusuvur shaharlari o'rtasida hamkorlik o'rnatilgan.

■ **40 dan** ortiq oliy o'quv yurtlari o'rtasidagi dastur va memorandumlar amal qilmoqda.

■ Senat va Milliy Mejlis o'rtasida parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha **2 ta** "Yo'l xaritasi" amalga oshirilgan.

## Uchrashuv

## O'ZARO HURMAT VA ISHONCH RUHIDA

O'zbekiston – Ozarbayjon birinchi parlamentlararo forumi doirasida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyevaning Ozarbayjon Respublikasi Milliy Mejlisi Raisi Sahiba Gafarova bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Unda ikki davlat rahbarlarining siyosiy irodasi tufayli O'zbekiston – Ozarbayjon munosabatlari yuksak darajaga ko'tarilgan hamda ittifoqchilik, o'zaro ishonch va hurmat ruhida rivojlanib borayotgani ta'kidlandi.

Muloqot chog'ida raqamlashtirish, innovatsion rivojlanish, ta'lim, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim va yoshlarni qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlarda parlamentlararo tajriba almashishni kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Tegishli qo'mitalar

va komissiyalar o'rtasidagi aloqalarni faollashtirish, shuningdek, parlament delegatsiyalarining muntazam tashriflari almashinuvini zarurlik qayd etildi.

Shuningdek, tomonlar Qo'shimlaslik harakatining parlament tarmog'i, Osiyo Parlament assambleyasi, Parlamentlararo Ittifoq kabi xalqaro va mintaqaviy parlamentlararo tuzilmalar doirasida hamkorlikni mustahkamlashdan manfaatdor ekanini bildirdi.

Ayni chog'da parlamentlararo forumning boy va mazmunli kun tartibi

qayd etildi, uning doirasida strategik sheriklik va gumanitar aloqalarni mustahkamlashda parlamentlarning rolidan tortib global tahdidlarga birgalikda javob berish va barqaror rivojlanishni rag'batlantirishgacha bo'lgan asosiy masalalar muhokama qilindi.

Muzokaralar yakuni bo'yicha 2025-2026-yillarga mo'ljallangan parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasini "Yo'l xaritasi", shuningdek, O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi parlament hamkorligini institutsionalashtirishda muhim qadam bo'ladigan Parlamentlararo komissiya faoliyati reglamenti imzolandi.

"Xalq so'zi".

## XOTIN-QIZLAR ROLINI KUCHAYTIRISH – TENGLIK TAMOYILINING MUHIM OMILI

O'zbekiston – Ozarbayjon parlamentlararo forumi doirasida ikki mamlakat parlamentlari vakillari o'rtasida xotin-qizlar va yoshlar masalalariga bag'ishlangan uchrashuv uyushtirildi.

Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar, yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi Orziqul Qozixonova mamlakatimizda xotin-qizlarning faolligi, qadr-qimmatini oshirishga qaratilgan tizimli ishlar, gender tenglikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar,

sohasida amalga oshirilayotgan ishlarni alohida e'tirof etdi.

Muloqot chog'ida ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy sohalarda o'zaro tajriba almashish hamda yoshlar o'rtasida madaniy-gumanitar loyihalarni yo'lga qo'yish masalalari ham ko'rib chiqildi.

Uchrashuv yakunida O'zbekiston parlamenti va Ozarbayjon Milliy Mejlisi o'rtasida qonun ijodkorligi sohasida xotin-qizlar va yoshlar masalalari bo'yicha tajriba almashishga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

## QONUN USTUVORLIGI, OCHIQLIK, HISOBDO'RLIK, TURIZM VA MADANIYAT

O'zbekiston – Ozarbayjon birinchi parlamentlararo forumi doirasida har ikkala mamlakat parlament a'zolari ishtirokida strategik aloqalarni mustahkamlash, biznes va investorlar uchun qulay muhit yaratish, intellektual kapital hamda raqamli transformatsiya sohasidagi hamkorlik, atrof-muhitni muhofazalash va iqlim o'zgarishining oldini olish masalalariga bag'ishlangan panel sessiyalari o'tkazildi.

### Forum

#### Strategik hamkorlikni mustahkamlash – ustuvor vazifa

O'zbekiston – Ozarbayjon birinchi parlamentlararo forumi doirasida "Strategik hamkorlikni rivojlantirishda parlamentlarning roli: qonunchilik tashabbuslari, yuqori darajadagi kelishuvlar va ularning bajarilishini nazorat qilish" mavzuidagi panel sessiyasida ishtirokchilar parlament nazorati yuzasidan dolzarb masalalar, qonunchilik tashabbuslari va ularning ijrosini atroficha muhokama etdi. Shuningdek, yuqori darajada erishilgan kelishuvlarning amalda bajarilishini ta'minlash, ijro hokimiyati ustidan parlament nazoratini kuchaytirish, fuqarolik jamiyati va OAV bilan samarali hamkorlikni tashkil qilish kabi muhim yo'nalishlar bo'yicha fikr almashildi.

Qonun ustuvorligi, ochiqlik, hisobdorlik, byudjet nazorati, korrupsiyaga qarshi kurashish ustidan parlament nazorati, inson huquqlari va demokratik institutlar himoyasi sessiyada muhokama qilingan asosiy mavzulardan bo'ldi.

Ishirokchilar parlamentlar o'rtasida muntazam tajriba almashish va parlament diplomatiyasini mustahkamlash muhimligini ta'kidlandi.

#### Biznes va investorlar uchun qulay muhit asosi

"Iqtisodiy taraqqiyotni parlament tomonidan qo'llab-quvvatlash: biznes va investitsiyalar uchun yangi imkoniyatlar" mavzuidagi panel sessiyada ikki mamlakatning iqtisodiy rivoji uchun parlamentlar tomonidan qonunchilik

asoslarini yaratish, investorlarga qulay muhitni shakllantirish, kichik biznesni rag'batlantirish masalalari muhokama qilindi.

Imtiyozli soliq hamda kredit siyosati, soddalashtirilgan tartib-taomillar, savdo hamda investitsiya bitimlarini qonuniy asosda mustahkamlash, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish borasida parlament tashabbuslari taqdim etildi.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot, mobil startaplar, moliyaviy texnologiyalar, yashil texnologiyalar va ekologik loyihalarga investitsiya jalb etish bo'yicha ham fikrlar bildirildi.

Sessiya yakunida parlamentlar biznes hamjamiyati bilan bevosita muloqotda bo'lish va iqtisodiy siyosatni qonunchilik orqali qo'llab-quvvatlashi zarurligi qayd etildi.

#### Intellektual salohiyat millatning kelajagini belgilaydi

Navbatdagi panel sessiyada intellektual kapital va raqamli transformatsiya sohasidagi hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Ikki mamlakat parlamentlari vakillari zamonaviy texnologiyalar, raqamli taraqqiyot hamda innovatsion muhitni shakllantirish, ta'lim va ilm-fan sohasidagi parlamentlararo hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga oid o'z fikr va takliflarini bildirdi.

Intellektual salohiyatni rivojlantirishga doir parlament tashabbuslari muhim ahamiyatga ega bo'lishi qayd etildi. Jumladan, STEM ta'limini rivojlantirish, uzluksiz kasbiy o'qitish tizimini takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish masalalari muhokama markazida bo'ldi.

Sessiya yakunida ishtirokchilar intellektual salohiyat va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishda parlamentlararo hamkorlikning dolzarbligi, qonunchilik tashabbuslari va institutsional qo'llab-quvvatlash muhim omil ekanini ta'kidlashdi. Parlamentlar ta'lim, ilm-fan va innovatsiya sohasidagi xalqaro loyihalarni qo'llab-quvvatlashi hamda yosh avlodni bilim, raqamli savodxon va tashabbuskor qilib tarbiyalashda faol qatnashishi zarurligi qayd etildi.

#### Madaniy diplomatiya va sog'liqni saqlash borasidagi qo'shma tashabbuslar

Anjumanning 4-panel sessiyasi madaniyat, turizm va sog'liqni saqlash sohasidagi parlamentlararo hamkorlikka bag'ishlandi. Parlament a'zolari tomonidan ushbu sohalarda parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash masalalari atroficha muhokama qilindi.

Ishirokchilar tomonidan madaniy almashinuvlar, ko'rgazmalar va qo'shma madaniy markazlar tashkil etish, tarixiy merosni asrash hamda o'zbek va ozarbayjon tillarini o'rganishni rag'batlantirishda parlamentlar faol ishtirok etayotgani ta'kidlandi.

Panel sessiyaning ikkinchi yo'nalishi doirasida turizm sohasida viza tartiblarini soddalashtirish, tarixiy-madaniy va ekologik yo'nalishlarni rivojlantirish, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, qo'shma turistik brendlar yaratish kabi tashabbuslar parlamentlararo aloqalarning yangi formati sifatida ilgari surildi.

Shu bilan birga, sessiyaning yakuniy qismida sog'liqni saqlash sohasidagi hamkorlik va parlament tashabbuslari muhokama etildi.

Xususan, tibbiy kadrlar tayyorlash, ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalar almashinuvini, infeksiyon kasalliklar profilaktikasi, onalik va bolalikni muhofaza qilish, qishloq hududlarida birlamchi tibbiy xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish,

sog'lom turmush tarzini targ'ib etish bo'yicha parlament darajasida hamkorlikni kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inkluziv tibbiy va madaniy xizmatlarni yo'lga qo'yish, teletibbiyot, sog'lom turizm va sport-reabilitatsiya markazlarini qo'llab-quvvatlash yuzasidan amaliy takliflar bildirildi.

#### "Yashil" kelajak sari

5-panel sessiya "yashil" kelajakka, atrof-muhit va iqlim o'zgarishini himoya qilishda parlamentlarning roliga bag'ishlandi.

Dastlab unda iqlimga moslashtirilgan qonunchilikni shakllantirish masalalari, milliy va mintaqaviy ustuvor yo'nalishlar muhokama markazida bo'ldi.

So'zga chiqqanlar iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda parlamentlarning o'rni, barqaror rivojlanish uchun qonunchilik tashabbuslari, "issiqxona gazlari" chiqindilarini kamaytirish, "yashil" energetikani rivojlantirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va plastik iste'molini qisqartirish kabi muhim yo'nalishlar bo'yicha fikr almashildi.

Muloqot davomida "yashil" texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, ekologik ta'lim va madaniyatni rivojlantirish, yoshlar orasida eko-tashabbuslarni targ'ib etish, "sog'lom shahar" infratuzilmasini – veloyo'laklar, yashil zonalar, sport maydonchalari va ommaviy tadbirlar orqali shakllantirish borasidagi parlament tashabbuslari muhokama qilindi.

Tadbir yakunida parlament a'zolari atrof-muhitni muhofazalash, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, biologik xilmaxillikni asrash, tibbiy ekoturizmni rivojlantirish, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inkluziv madaniy va ekologik xizmatlarni yo'lga qo'yish bo'yicha parlamentlararo hamkorlikni kengaytirish zarurligini ta'kidlashdi.

#### Muloqot markazida – teng imkoniyatlar yaratish masalasi

"Jamiyat va davlat taraqqiyotida

xotin-qizlar va yoshlar ovozi: parlament istiqboli" mavzuida bo'lib o'tgan 6-panel sessiyada ayollar va yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish, ularni qonunchilik yo'li bilan qo'llab-quvvatlash hamda ikki davlat parlamentlari o'rtasida tajriba almashinuvini mustahkamlash masalalari haqida fikr yuritildi.

Sessiyaning birinchi yo'nalishi doirasida ayollar, bolalar va yoshlarni zo'rovonlik hamda kamsitishdan himoya qilishning huquqiy mexanizmlari ko'rib chiqildi.

Keyingi yo'nalish doirasida zamonaviy iqtisodiyotda ayollar va yoshlarning faolligini oshirish uchun qonunchilik asoslarini yaratish, soliq imtiyozlari, startaplar uchun grantlar ajratish, kasbga yo'naltirish va texnologik ta'limga keng yo'l ochish bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Sessiyaning yakuniy qismida O'zbekiston va Ozarbayjon yoshlari o'rtasida muloqotni yangi bosqichga ko'tarish mavzuida fikrlashildi. Unda Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti raisi Laylo Aslonova va Ozarbayjon Respublikasi Milliy Mejlisi Yoshlar va sport qo'mitasi raisi o'rinbosari Kyonyul Nurullayeva so'zga chiqdi.

Ular yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etish, ekologiya, ta'lim, sog'liqni saqlash va raqamli texnologiyalar sohasida parlament tashabbuslarida ishtirokini kengaytirish haqida muhokazalar bildirishdi.

Sessiya doirasida parlamentlararo hamkorlikni kuchaytirish maqsadida ayollar va yoshlarning siyosiy faolligini oshirish, ularni zo'rovonlik va kamsitishdan himoya qilish, kasbiy va oilaviy hayot muvozanatini ta'minlovchi qonunchilik asoslarini mustahkamlash, STEM, IT hamda innovatsion sohalarda imkoniyatlarini kengaytirish va ular uchun xavfsiz, inkluziv hamda barqaror ijtimoiy muhit yaratish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab olindi.

"Xalq so'zi".

### Istiqbol

## XIVA DEKLARATSİYASI QABUL QILINDI

Kecha Xiva shahrida O'zbekiston – Ozarbayjon birinchi parlamentlararo forumi muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Ozarbayjon Milliy Mejlisi Raisi Sahiba Gafarova o'z nutqida Prezident Shavkat Mirziyoyevning uzoqni ko'zlab olib borayotgan siyosati, amalga oshirayotgan islohotlari tufayli bugungi kunda O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'lidan jadal qadam tashlab, ko'plab sohalarda salmoqli yutuq va marralarni zabt etmoqda, deb ta'kidlandi.

Kun davomida forum ishtirokchilari qator dolzarb masalalarni muhokama qildi. Jumladan, strategik sheriklikni mustahkamlashda parlamentlarning o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, raqamlashtirish, innovatsion rivojlanish, barqaror qishloq xo'jaligi, ta'lim, sog'liqni saqlash, gender tenglik, gumanitar va ekologik sohalardagi hamkorlik masalalari ko'rib chiqildi.

Iqtisodiy aloqalar va investitsiyaviy sheriklikni kengaytirish, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va turizm sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishlariga moslashish, shuningdek, xotin-qizlar va yoshlarning jamiyat hamda davlat hayotidagi rolini kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Forumda investitsiya muhitini yaxshilash va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shma tavsiyalar ishlab chiqish, xorijda O'zbekiston va Ozarbayjon savdo uylarini tashkil etish, muntazam biznes missiyalarini o'tkazib borish, viza tartib-taomillarini soddalashtirish va raqamli turizm platformasini yaratish, turkiy dunyo mamlakatlari uchun umumiy ta'lim bazasi va elektron resurslarni shakllantirish, tibbiy sug'urta va bemorlarni transchegaraviy davolash bo'yicha qo'shma yondashuvlarni ishlab chiqish kabi qator aniq tashabbuslar ilgari surildi va qo'llab-quvvatlandi.

Forum yakunida uchta muhim hujjat qabul qilindi:

– *Parlamentlararo hamkorlikning asosiy tamoyil va ustuvor yo'nalishlarini aks ettiruvchi Xiva deklaratsiyasi;*

– *2025-2026-yillarga mo'ljallangan parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasini ("Yo'l xaritasi");*

– *ta'sis etilishi qo'shma qarorlarni muvofiqlashtirish va amalga oshirishda muhim mexanizm hisoblangan Parlamentlararo komissiya reglamenti.*

Ishirokchilarning fikricha, forum O'zbekiston va Ozarbayjon xalqlari manfaatlarini hamda ikki do'st davlat o'rtasidagi parlamentlararo muloqotni mustahkamlash yo'lida muhim qadam bo'ldi.

"Xalq so'zi".

### Brifing

## OAV xodimlari uchun matbuot anjumani

O'zbekiston – Ozarbayjon birinchi parlamentlararo forumi doirasida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva hamda

Ozarbayjon Respublikasi Milliy Mejlisi Raisi Sahiba Gafarova OAV xodimlari

uchun brifing o'tkazdi.

Matbuot anjumanida O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi munosabatlarda azaldan umumiy tarixiy, madaniy va ma'naviy qadriyatlarga asoslangani, bu rishtalar xalqlarimizning do'stligi, bir-birini hurmat qilishi, qardoshlik tuyg'ulari bilan mustahkamlangani e'tirof etildi.

Shuningdek, kun davomida parlamentlar o'rtasidagi hamkorlikning dolzarb masalalari muhokama qilingani, ikki mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda parlamentlar va vakillik organlarining ko'plab ustuvor vazifalari ko'rib chiqilgani ta'kidlandi.

O'zbekiston va Ozarbayjon hamkorligi nafaqat ikki tomonlama, balki mintaqaviy ahamiyatga ega bo'lib, har ikki mamlakat farovonligi va mintaqalar barqarorligiga xizmat qilishi urgulandi. Parlamentlararo aloqalar esa strategik hamkorlikni mustahkamlashda ikki davlatning salohiyatini yanada kengroq ochib berish imkonini berishi hamda forumning yakuniy hujjati – Xiva deklaratsiyasi parlamentlararo hamkorlikning eng muhim jihatlarini o'z ichiga olishi qayd etildi.

"Xalq so'zi".

Butunjahon boks assotsiatsiyasi (WBA) iyun oyi yakuniga ko'ra e'lon qilgan professional bokschilarning yangilangan reytingidan mamlakatimizning 8 nafar vakili joy oldi.

# HUQUQIY NORMALAR SAMARADORLIGI — ASOSIY MAQSAD



Majlisda, shuningdek, huquqiy eksperiment va rieltorlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, huquqni qo'llash amaliyotining bir xilligini ta'minlash, statistika sohasidagi islohotlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash, aholini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolati ta'minlash hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmlarini ko'paytirishga qaratilgan qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

## Huquqiy eksperiment o'tkazish tartiblarini belgilanmoqda

Majlisda "Huquqiy eksperiment to'g'risida"gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda muddam-mudda ko'rib chiqildi. Ta'kidlanganidek, bugungi kunda ilg'or texnologiyali taraqqiyot barcha sohaga chuqur kirib bormoqda. Har qanday o'zgarish va yangilik sinovdan o'tkazgandan so'ng joriy etish har tomonlama maqsadga muvofiq sanaladi. Huquqiy eksperiment mana shu jihatdan ham muhim demokratik institut hisoblanadi.

Qonun loyihasida huquqiy eksperiment o'tkazish shartlari va usullari, uni tashkil etish va o'tkazish shartlari, huquqiy eksperiment natijalarini baholash tartibi va ularni rasmiylashtirish bo'yicha talablar belgilanmoqda. Shuningdek, muayyan tartib-taomilni huquqiy eksperimentdan o'tkazish vaqt, hudud va shaxslar doirasi bo'yicha olib borilishi, huquqiy eksperimentni o'tkazish bosqichlari nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida kelib tushgan taklif va fikrlar e'tiborga olinib, undagi normalar takomillashtirildi. Xususan, cheklangan sohalarning umumiy mezonlari aniqlashtirildi, insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklaydigan, bekor qiladigan yoki yomonlashtiradigan eksperimentlarga yo'l qo'yilmasligi qat'iy belgilandi.

Huquqiy eksperiment o'tkazishdagi vakolatli organlar roli kengaytirildi, Vazirlar Mahkamasining muvofiqlashtiruvchi roli aniq belgilab qo'yilmoqda. Davlat organlari vakolatlari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy eksperimentda ishtiroki alohida bobda aks ettirildi.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan qator asosiy savol va takliflar ilgari surildi. Xususan, **O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi Saydullo Azimov** qonun loyihasi, avvalambor, normativ-huquqiy hujjatlarini amaliyotga to'liq joriy qilishdan oldin, ularning samaradorligini baholash maqsadida huquqiy eksperiment o'tkazish tartibini joriy etishga qaratilganini ta'kidladi.

Deputat huquqiy eksperimentlarni amalga oshirish bilan bog'liq masalaga e'tibor qaratdi. Mazkur huquqiy mexanizmi amalga oshirishning aniq va mukammal tartibi qonun loyihasining qator maddalarida o'z ifodasini topmaganini ta'kidladi. Unga ko'ra, huquqiy eksperiment qanday tartibda tashkil etilishi, vakolatli organlar tomonidan bunday eksperimentlarni o'tkazishga oid qarorlar qanday asosda va qaysi shaklda qabul qilinishi masalalari qonunchilikda aniq huquqiy me'yorlar bilan belgilanishi zarur.

Shuningdek, xalq vakili qonun loyihasidagi ayrim moddalarning nomlanishi

mazmuniga to'liq mos kelmasligi bilan bog'liq aniqlashtirishni talab etuvchi savollarni o'rta qo'ydi. Loyihadagi alohida normalarning o'zaro muvofiqini ta'minlash, ular o'rtasida mazmuniy yaxlitlikka erishish yuzasidan aniq takliflarini bildirdi.

Qonun tashabbuskorlari bu bo'yicha atroflicha tushuntirish berib o'tdi. Ta'kidlandiki, mazkur qonun loyihasi xalqchil qonunlarning qabul qilinishiga, samarali huquqiy normalarni amaliyotga joriy etishga hamda huquqni qo'llashdagi turlicha talqin va murakkabliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Bildirilgan munosabatlardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

## Rieltorlik faoliyatida ochiqlik va shaffoflik

Majlisda "Rieltorlik faoliyati to'g'risida"gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda batafsil ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda rieltorlik xizmatlari bozorida talablarni qondirish maqsadida rieltorlik faoliyatini rivojlantirish, ushbu xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, rieltorlik faoliyatini tartibga solish, sohada amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarini zamonaviy tendensiyalarga va qonunchilikdagi o'zgarishlarga muvofiq qilinish, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan qonun loyihasini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Shundan kelib chiqib, ushbu qonun loyihasi bilan norasmiy vositachilar (maklerlar)ning yashirin bozorini qisqartirish, ular faoliyatining ochiqligi va haloligini ta'minlagan holda "ko'chmas mulk bo'yicha agenti" sifatida rieltorlik faoliyatini yuritishga ruxsat berish, bu bilan raqobat muhitini rivojlantirish, iste'molchilarning rieltorlarga nisbatan ishonchini oshirish hamda fuqarolarning aldanish holatlarining oldini olish ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, bankdan tashqari aylanmani, shu orqali "yashirin iqtisodiyot"ning qisqarishi va rieltorlik xizmatlarini "yagona darcha" tamoyili asosida ko'rsatish maqsadida ko'chmas mulk obyektlarining elektron savdosini hamda hisob-kitoblarni elektron shaklda amalga oshirish (kliring) imkonini beruvchi multiling tizimlarini (elektron savdosini) tashkil etish belgilanyapti.

Loyiha bilan rieltorlik faoliyati sohasidagi professional jamoat birlashmalari o'rni kengaytirish, ularga yangi vazifalar va vakolatlari berish ham taklif etilmoqda. Rieltorlik subyektlarining to'g'ri hisobini yuritish, ular haqida jamoatchilikka ochiq axborot yetkazish va samarali monitoringni yo'lga qo'yish maqsadida aholi uchun ochiq bo'lgan rieltorlik subyektlarining "Yagona reestri" axborot tizimini joriy etish belgilanyapti.

Majlisda deputatlar qonun loyihasining ahamiyati va zaruratiga alohida e'tibor qaratib, unda nazarda tutilayotgan ayrim normalar bo'yicha qator savollarni o'rta qo'ydi. Jumladan, **O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi Zafar Xudoyberdiyev** qonun loyihasining 19-moddasida rieltorlik tashkilotiga qo'yilayotgan majburiy shartlarga to'xtalib o'tdi. Xususan, ulardan biri, ya'ni rieltorlik tashkiloti

professional jamoat birlashmalaridan biriga a'zo bo'lishi kerak, deya majburiyat qilib belgilanishi nazarda tutilayotgan amaldagi "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonunlar normalariga zid bo'lib qolmaydimi degan savol o'rta qo'ydi.

Shuningdek, deputatlar tomonidan, rieltor, rieltorlik tashkiloti, rieltorlik faoliyatining asosiy prinsiplari, ushbu sohada davlat siyosatining asosiy yo'nalishlariga oid qator aniqlashtiruvchi savollar ham berildi.

Qonun tashabbuskorlari barcha savollar yuzasidan atroflicha tushuntirish berdi.

Savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

## Yo'l-transport sohasidagi ayrim huquqbuzarliklar uchun "ma'muriy ogohlantirish" jazo chorasini joriy etiladi

Majlisda "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Mazkur qonun loyihasi bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga "ma'muriy ogohlantirish" jazo chorasini kiritish va ijtimoiy xavfi kam bo'lgan yo'l harakati xavfsizligi bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun ogohlantirish jazosini qo'llashni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 36-moddasi to'ldirilmoqda. Unga muvofiq, yo'l harakati qoidalarini buzilganligi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan holda ma'muriy jazo huquqbuzarlik sodir etilgan kunda boshlab bir oydan kechiktirmay, qaror ustidan shikoyat qilinganda esa bir yildan kechiktirmay qo'llanilishi belgilanyapti. Ya'ni endilikda foto va video qayd etish texnika vositalari orqali aniqlangan huquqbuzarlik uchun qaror bir oydan kechiktirib chiqarilgan bo'lsa, jazo qo'llanilmaydi.

Qonun loyihasi bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda avtomatlashtirilgan foto va video vositalari yordamida qayd etiladigan huquqbuzarliklar aniq sanab o'tilmoqda. Endilikda "polosani bosganlik" holati kamera orqali qayd etilsa, jarima qo'llanilmasligi ham belgilanmoqda.

Majlisda qonun loyihasining bugungi kundagi zarurati xususida fikr-mulohazalar bildirildi. Jumladan, **Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi raisi Jahongir Shirinov** qonun loyihasi bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga kiritilayotgan 241-madda, ya'ni "ma'muriy ogohlantirish" institutining ahamiyatiga to'xtalib o'tdi. Uning aytishicha, endilikda loyihada sanab o'tilgan oltita modda bo'yicha yo'l harakati qoidalarini buzilganligi huquqbuzarliklar sodir etgan shaxsni insonparvarlik nuqtayi nazaridan, agar u aybiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lsa, darhol jarima qo'llanmasdan vakolatli organ yoki mansabdor shaxs tomonidan unga nisbatan ma'muriy ogohlantirish chorasini qo'llash nazarda tutilyapti. Bu insonparvarlik

institutining qo'llanilishi, albatta, e'tiborga molik.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

## Jismoniy va yuridik shaxslar huquqlari ishonchli himoya qilinadi

Majlisda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish borasida keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayni chog'da huquqni qo'llashda yagona amaliyotni ta'minlashga to'stinlik qiluvchi, korruptsiyaviy xavf-xatarlarni keltirib chiqaruvchi hamda aholi va tadbirkorlarning ortiqcha sarson bo'lishiga sabab bo'luvchi ayrim normalarni huquqiy jihatdan tartibga solish zarurati yuzaga kelaypti.

Shundan kelib chiqib, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonunni "Aksiyadorlik jamiyatlar va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunga muvofiqlashtirish maqsadida aksiyalarni aksiyadorlik jamiyati bilan bir qatorda aksiyadorlar ham imtiyozli huquq asosida (to'g'ridan-to'g'ri) sotib olishi mumkinligi belgilanmoqda.

Shuningdek, yig'ilmalari joriy etish tartibi faqat qonunlarda belgilanishi nazarda tutilmoqda. Loyiha bilan Vazirlar Mahkamasining maktabgacha ta'lim va ta'biyot davlat standartini tasdiqlash vakolati Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga o'tkazilmoqda.

Deputatlarining takliflaridan kelib chiqib, ushbu qonun loyihasi bilan davlat o'rmon xo'jaligi organlari tomonidan o'rmon fondi yerlarini onlayn-auksion orqali ijaraga berish tartibi amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq faqatgina o'rmon fondining foydalanilmayotgan yerlariga nisbatan tatbiq etilishi belgilab qo'yilmoqda.

Majlisda ushbu hujjat huquqni qo'llashda yagona amaliyotni ta'minlash, korruptsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish, jismoniy va yuridik shaxslar huquqlarining ishonchli himoyasi bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishga xizmat qilishi qayd etildi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan

vakolatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'z navbatida, rasmiy statistika sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida ushbu sohaga oid qonun hujjatlarining normalarini o'zaro muvofiqlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur qonun loyihasi bilan 2 ta kodeks va 10 ga yaqin qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Qonun loyihasi rasmiy statistika sohasida ma'muriy islohotlarni samarali amalga oshirish doirasida statistika organlarining faoliyatini takomillashtirish hamda rasmiy statistikadagi foydalanuvchilar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

## Muxolifat fraksiyasining qat'iy pozitsiyasi va 22 ta qarshi ovoz

Majlisda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Mazkur qonun loyihasi bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi hamda Soliq kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish belgilanmoqda. Bunda dala chetlari hamda kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarda belgilangan muddatda ekin ekmaganklik va yil davomida mahsulot yetishtirmaganlik uchun javobgarlik belgilash, yer solig'ini oshirilgan stavkada hisoblash nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'oriladigan yer uchastkalaridan samarali foydalanishga, oziq-ovqat mahsulotlariga tobora oshib borayotgan talabni qondirishga qaratilgan.

Majlisda qonun loyihasi deputatlarining qizg'in muhokamalariga sabab bo'ldi.

## Parlamentdagi muxolifat — O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi rahbari Ulug'bek Inoyatov qonun loyihasini tayyorlashda bir tomonlama yondashuv bo'lganini tanqidini baholab, fraksiyaning qat'iy pozitsiyasini bildirdi.

Fraksiya rahbariga ko'ra, qonun loyihasining mazmuni faqatgina talab belgilash va jazolash bo'lib qolgan, bunda ikkinchi tomon, ya'ni yerlardan birlamchi



Alixon UTARBEKOV olgan suratlar.

uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

## Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar uchun qulay shart-sharoitlar

"Rasmiy statistika sohasida davlat boshqaruvi tizimi takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda konseptual jihatdan ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining tashkil etilishi rasmiy statistika sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, rasmiy statistikani rivojlantirish masalalari bo'yicha faoliyatni milliy statistika tizimi doirasida muvofiqlashtirish jarayonida statistika organlarining mustaqilligi va

va ikkilamchi foydalanuvchilarning manfaatini ta'minlashni nazarda tutuvchi aniq mexanizmlar loyihadagi ko'rsatilmagan.

U. Inoyatov O'zXDP fraksiyasi ushbu qonun loyihasini konseptual jihatdan qayta ko'rib chiqishni lozim, deb hisoblashini ma'lum qildi.

"Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi **Manzura Salimova** qonun loyihasiga ko'ra, dala chetlariga ekin ekilishini yoki mahsulot yetishtirilishini ta'minlamagan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga bir emas, uchta ta'sir choralarini qo'llanilishi belgilanayotganiga e'tibor qaratib, mazkur ta'sir choralarining qo'llanilishi qanchalik adolatli, degan savol bilan murojaat qildi.

Qonun tashabbuskorlari o'tarilgan masalalar yuzasidan atroflicha tushuntirish berib o'tdi.

Savol-javoblar, fikr-mulohazalardan

so'ng qonun loyihasi ovozga qo'yildi va 22 ta qarshi ovoz bo'lsa-da, birinchi o'qishda qabul qilindi.

## Atrof-muhit muhofazasiga mas'ullik

Majlisda qurilish materiallari sohasidagi texnik jihatdan tartibga solishni yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolar salomatligi va atrof-muhitni muhofaza qilish, chiqindi bilan bog'liq ishlarini amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish sohasida aniq maqsadga qaratilgan keng ko'lami ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, mahsulotlar ishlab chiqarish, ulardan foydalanish natijasida yuzaga keladigan chiqindilarni qayta ishlash bilan bog'liq masalalarni huquqiy jihatdan tartibga solishga zarurat sezilmoqda.

Qonun loyihasining asosiy maqsadi chiqindilarning fuqarolar hayoti va sog'lig'iga, atrof-muhitga zararli ta'sirining oldini olish, chiqindilar hosil bo'lishini kamaytirish va ulardan oqilona foydalanilishini ta'minlashdan iborat. Qurilish oynasidan foydalanish natijasida yuzaga keladigan chiqindilarni qayta ishlash va qayta ishlash xarajatlarini qoplash uchun utilitatsiya yig'imini joriy etilmoqda.

O'z navbatida, qonun loyihasi qurilish oynasi sifatini yaxshilash barobarida, mahalliy ishlab chiqarilayotgan qurilish oynasi eksporti hajmini yanada oshirish imkonini beradi.

Deputatlar ta'kidlashicha, mazkur qonun loyihasi ekologik xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolar salomatligi va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda o'z iste'mol xususiyatini yo'qotgan qurilish oynalarini utilitatsiya qilish infratuzilmasini yaratishga qaratilgan.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

## Jahon savdo tashkiloti a'ziligiga kirish yanada jadallashadi

"Bozor islohotlari va O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zoliq yanada jadallashtirilishi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizning xalqaro iqtisodiyotga to'liq integratsiyasini ta'minlash, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish, monopoli sohalarni bozor tamoyillariga izchil o'tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish va tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish bo'yicha keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, bozor islohotlari va O'zbekistonning JSTga to'laqonli a'zoliq doirasida davlat ishtirokidagi ayrim yirik korxonalarining maxsus (eksklyuziv) huquqlari bosqichma-bosqich bekor qilinyapti.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining JSTga a'zo bo'lishi doirasida milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlariga uyg'unlashtirish ushbu tashkilotga a'zo bo'lishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. JSTning Tariflar va savdo bo'yicha bosh bitimida a'zo davlatlar savdodagi tariflar va boshqa to'siqlarni sezilarli darajada kamaytirishi lozimligi ta'kidlangan.

Qonun loyihasi bilan "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi va "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish belgilanmoqda. Ya'ni qora va rangli metall lomi va chiqindilarini tayyorlash (xarid qilish), qayta ishlash va realizatsiya qilish, tabiiy gazning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyalash tartibini joriy etish nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasi qora va rangli metall lomi hamda chiqindilari, tabiiy gaz savdosi sohasiga xususiy sektor hamda innovatsiyani jalb qilish, raqobat va ochiq bozor muhitini yaratishga qaratilgan.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

## Tataristonda o'tkazilgan "2025 — Sanoat xavfsizligi va mehnat muhofazasi" xalqaro forumida "O'zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyati mutaxassislari ham qatnashdi.

**Xalq so'zi**  
**Narodnoe slovo**

MUASSISLAR:  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

**Bosh muharrir O'tkir RAHMAT**

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-642. 11 845 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:  
Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:**  
**100066,**  
**Toshkent shahri,**  
**Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.**  
Navbachi muharrir S. Mamirov.  
Muhohib Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 02.20

Topshirildi — 02.35

1 2 3 4 5 6